

## TURIZMNING – IQTISODIYOTDAGI O‘RNI VA UNING HISOBINI TASHKIL ETISH.

**F.Nurniyozov- "Buxgalteriya hisobi" kafedra assistenti.  
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turizmning milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyati yoritilgan bo'lib, turizm sohasining rivojlanish ko'rsatkichlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** milliy iqtisodiyot, turizm, turizm industriyasi, sayyoh, turistik korxonalar.

**Аннотация:** В статье излагается важность туризма для обеспечения национальной экономике и анализа тенденций развития индустрии туризма.

**Ключевые слова:** Национальная экономика, туризм, индустрии туризма, турист, туристические предприятия.

**Annotatiton:** The article provides information about the importance of tourism in order to ensure the national economy and analyze the trends in the development of the tourism industry.

**Key words:** National economy, tourism, tourism industry, tourist, tourist enterprises.

**Kirish.** So'nggi yillarda iqtisodiyotning tobora integratsiyalashib borayotganligi, xalqaro aloqalarning tizimli takomillashuvi natijasida turizm sohasining barqaror rivojlanib borayotganligini ko'rish mumkin. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida turizm sohasining milliy iqtisodiyotdagi o'zni va nufuzi ham tobora ortib bormoqda. Chunki turizm eng serdaromad sohalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida turizm iqtisodiyotini isloh qilish va milliy taraqqiyot modelini mukammallashtirishga o'zining hissasini qo'shuvchi tarmoq sifatida shakllanishi uchun muayyan shart-sharoitlar yaratilgan.

Mamlakatimizda turizm salohiyatini tubdan oshirishga, turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berish hamda turizm faoliyatini har tomonlama rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.


Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilingan hamda izchil amalga oshirilayotgan 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida ham xizmat ko'rsatish sohasi hamda turizmni rivojlantirish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Jumladan:

- Faoliyat ko'rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarini samaradorligini oshirish, yangilarni tashkil etish;
- Xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'zni va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish;

- Turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev turizmni rivojlantirish bo'yicha: "Biz hozir faqat turizmni rivojlantirish bilan shug'ullanadigan tuzilmaga doir masalalarni tasdiqladik. Bu choralar turizmning O'zbekiston iqtisodiyoti rivojiga qo'shadigan hissasini oshirish, tarixiy va madaniy qadriyatlarimizni targ'ib qilish, shuningdek, valyuta zaxiralarini to'ldirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar bilan kuchaytirilishi zarur"<sup>1</sup> deya ta'kidlaganlar.

**Tahlil va natijalar.** Mamlakatimizda turizm sohasining yildan-yilga rivojlanib, taraqqiy topib borishi natijasida yurtimizga kelayotgan sayyohlar soni ham tobora ortib bormoqda. So'nggi yillarda turizmning rivojlanib borishi orqali yurtimizda ichki turizm ham jadal tarraqiyot yo'lidan odimlab bormoqda. O'zbekistonda turizmning tez sur'atlar bilan o'sishi mamlakatimizga katta miqdordagi valyuta tushumlarining kirib kelishi hamda yangi ish o'rinlarining paydo bo'lishiga olib kelmoqda.



**1-rasm. O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari (Rasmiy deklaratsiyadan o'tganlar, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi ma'lumotlariga asosan)<sup>2</sup>**


Rasmda keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rish mumkinki, 2016-yilda O'zbekiston Respublikasiga 2157.7 ming nafar chet el fuqarolari tashrif buyurgan, bu esa 2000-yilga nisbatan 7 barobarga ko'paygan.

Mamlakatimizga tashrif buyurayotgan sayyohlarga xizmat ko'rsatuvchi turistik firma va tashkilotlar soni ham yildan-yilga tobora ortib bormoqda. 2016-

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi. 2017-yil 16-yanvar.

<sup>2</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz) ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tuzildi.

yilda faoliyat yuritayotgan turistik firmalar soni 433 tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2012-yilga nisbatan 75 taga ko'p. Ushbu korxonalar tomonidan xizmat ko'rsatilgan shaxslar soni 2012-yilda 511.6 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2016-yilda 465.4 ming nafarga yetgan.



## 2-rasm. Turistik faoliyatni amalga oshirgan tashkilotlar soni (2012-2016 yillar)<sup>3</sup>

Turistik faoliyatni amalga oshiruvchi korxonalar faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash orqali bunday turdagi faoliyatni amalga oshiruvchi subyektlar sonining ortib borishi hamda sayyohlarga ko'rsatiladigan xizmatlar ko'laminig yanada yaxshilanib borishiga zamin yaratadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki turizim sohasida buxgalteriya hisobi to'g'ri tashkel qilish eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bulib hisoblanadi. Turizimda buxgalteriya hisobini yuritishda korxonalar hisob siyosatidan boshlanadi, korxonalar hisob siyosatida korxonalar qanday hisob olib borishi to'g'risida kelajakdagi harakatlar strategiyasi desak buladi. Unda korxonalar asosiy vositalar hisobini olib borish eskirishni qaysi usulada olib borishi yani chiziqli eskirish, ishlab chiqarish, qolqirdli kamayish va komilyativ (yillar yig'indisi), shu usullardan qaysida eskirish hisoblanadi korxonalar hisob siyosatida ko'rsatib o'tiladi. Undan tashqari korxonalar hisob siyosatida matiriyallar sarfi va soliq hisob siyosati, yani korxonalar qaysi soliq tulov turida ekanlegini ko'rsatib o'tiladi va shu korxonalar hisob siyosatidaga qarab audit tekshiruv ham shundan kelib chiqib tekshiruv olib boriladi.

**Xulosa va takliflar.** Buxgalteriya hisobi bilan bog'liq ba'zi bir moliyaviy operatsiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi: mijozlarga taqdim etilgan tovar yoki xizmatlar uchun hisob-kitoblar, mijozlar tushumlarini ro'yxatdan o'tkazish, etkazib

<sup>3</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz) ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tuzildi.

beruvchilarning hisob-kitoblarini tekshirish va ro'yxatdan o'tkazish, etkazib beruvchilarga to'lovlarni to'lash, xodimlarning ish haqi va davlat hisobotlarini qayta ishlash hamda moliyaviy hisobotlarni yaratish. Buxgalteriya hisobining eng muhim jihati - bu barcha ma'lumotlarni aniq va dolzarb hisobga olish. Aniqlik bu butun jarayonning eng muhim qismidir. Bugungi kunda butun dunyo bo'ylab buxgalteriya hisobi dasturiy ta'minot yordamida amalga oshiriladi.

Buning uchun debetlar va kreditlar, shuningdek, buxgalteriya balansi va daromadlar to'g'risidagi hisobotni o'z ichiga olgan moliyaviy buxgalteriya hisobi bo'yicha asosiy bilimlar kerak. Buxgalteriya - bu har kuni yangilanadigan, moliyaviy operatsiyalar va biznes bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar.

Alohida moliyaviy operatsiyalar bo'yicha yozuvlarning to'g'ri, dolzarb va keng qamrovli bo'lishini ta'minlaydi. Shu sababli, aniqlik bu jarayon uchun juda muhimdir.

Ushbu element hisob-kitoblar va hisob-kitoblar tayyorlanadigan ma'lumotlarni taqdim etadi. Ushbu o'ziga xos jarayon buxgalteriya hisobining keng doiralarida sodir bo'ladi. Xarid qilish yoki sotish bo'lsin, har qanday operatsiya kitoblarga yozilishi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisdagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi. 2017-yil 16-yanvar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatimizni 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.
3. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tuzildi.
4. Ўзбекистон Республикасининг “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги Қонуни. Т.: Норма. 2016 йил. 13 апрел.